

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Yu.04.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

AYMURATOV SULTAMURAT BERDIMURAT ULI

O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK VA
IJROIYA ORGANLARI O‘ZARO MUNOSABATLARINING
KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus shahri – 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Aymuratov Sultamurat Berdimurat uli

O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijroiya organlari o‘zaro munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari..... 3

Аймуратов Султамурат Бердимурат улы

Конституционно-правовые основы взаимодействия представительных и исполнительных органов государственной власти на местах в Узбекистане..... 19

Aymuratov Sultamurat Berdimurat uli

Constitutional and legal foundations of the relationship between representative and executive bodies of state power in Uzbekistan..... 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 44

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Yu.04.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

AYMURATOV SULTAMURAT BERDIMURAT ULI

O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK VA
IJROIYA ORGANLARI O‘ZARO MUNOSABATLARINING
KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus shahri – 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Yu1404 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Qoraqalpoq davlat universitetida veb-sahifasida (www.karsu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nazarov Shavkat Nazarovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ro‘ziyev Zafar Raimovich
yuridik fanlar doktori, professor;

Daumenov Berdax Aymuratovich
yuridik fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar
vazirligi akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Yu.04.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” avgust kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230100, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh., akademik Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (557-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 230100, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh., akademik Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “___” _____ 19-raqamli reestr bayonnomasi).

E.D. Kutibaeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

G.M. Berdimuratova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent

Z.A. Reymova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: Dunyoda demokratik yoʻldan taraqqiy etib borayotgan mamlakatlarda davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish, shuningdek, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolarning bevosita hamda oʻz vakillari orqali ishtirok etishi uchun konstitutsiyaviy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Jahon tajribasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining boshqaruvdagi imkoniyatlarini yanada kengaytirib borish, davlat hokimiyatining vakillik organlari oldida ijro hokimiyatining masʼuliyatini oshirish, ularning oʻzaro munosabatlarini tartibga solishda hokimiyatlar boʻlinishi prinsipini joriy etib borish boʻyicha ustuvor gʻoyalar ilgari surib kelinmoqda. Ularni taʼminlash yoʻlida yuzaga keladigan muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar topish dolzarbligi ortib bormoqda. Shunga koʻra, bu yoʻnalishda ilmiy-amaliy va fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz uchun mazkur gʻoyalarni amalga oshirishning dolzarbligi va ularni taʼminlash zarurati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi fikrlaridan kelib chiqadi: “Yangi Oʻzbekiston - xalqchil va insonparvar davlat” gʻoyasini amalga oshirishga alohida eʼtibor qaratamiz. Shu asosda mahalliy boshqaruv organlarining joylardagi muammolarni hal etishdagi roli va masʼuliyatini yanada kuchaytiramiz. Buning uchun kelgusida davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga oʻtkaziladi¹. Hozirgi davrda mahalliy davlat hokimiyatini isloh qilish masalasi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha moʻljallangan ustuvor yoʻnalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmonida belgilangan. Mazkur Farmonda: “Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal etishdagi asosiy boʻgʻinga aylantirish”², hamda “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish”³ kabi ustuvor islohotlar gʻoyalari oʻz ifodasini topgan. Bu esa, oʻz navbatida, mazkur sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati

¹ Mirziyoyev, Sh. M. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yoʻlini qatʼiy davom ettiramiz. Yangi saylangan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalari qoʻshma majlisidagi nutqi. 06.11.2021 y. // [elektron resurs] <https://president.uz/oz/lists/view/4743> (murojaat sanasi: 10.10.2025)

² Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha moʻljallangan ustuvor yoʻnalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 17.02.2026-y., 06/26/21/0145-son; 30.03.2026-y., 06/26/46/0290-son. // [elektron resurs] <https://lex.uz/docs/-8050769> (murojaat sanasi: 30.07.2026)

³ Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha moʻljallangan ustuvor yoʻnalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 17.02.2026-y., 06/26/21/0145-son; 30.03.2026-y., 06/26/46/0290-son. // [elektron resurs] <https://lex.uz/docs/-8050769> (murojaat sanasi: 30.07.2026)

to'g'risidagi (2002), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi (2019), Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi (1993), Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi (2013) qonunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni (2026), Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni (2024) hamda tadqiqot mavzusiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I ustuvor yo'nalishi - Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga oid umumnazariy masalalar va ularning faoliyatiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar A.Azizxo'jayev, S. Adilxodjayeva, O.Xusanov, S.Murataev, A.Maxmudov, A.To'laganov, I.Bekov, A.Dadasheva, Z.Israilova, A.Xolov, G.Ismailova, S.Azizov, N.Xodjamov, S.Safoev, R.Xakimov¹ va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga oid ilmiy izlanishlar D.Olshanskiy, S.Avakyan, E.Kombarova, E.Zamoteva, A.Akmalova, A.Miloserdov, T.Poltavskaya, Yu.Stepanova, N.Latipova, A.Averin, S.Pleshnikov, I.Proxorenko, L.Januzakova, S.Maligina² kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida esa J. Boston, J. Martin, J. Pallot, P. Walsh³ kabi olimlar tomonidan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining samaradorligini baholashga doir masalalar tahlil qilingan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida S.Niyetullayev, E.Kutibaeva, Z.Reymova, B.Daumenov, J.Ermashov, S.Amaniyazova, S.Allambergenov, G.Mambetnazarov⁴ va boshqalar tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijroiya organlari, ularning vakolatlari, shuningdek tashkil etilishining tashkiliy-huquqiy jihatlari o'rganilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijro etuvchi organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro normalar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida kompleks ilmiy tadqiqot sifatida hozirga qadar maxsus o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Berdaq nomidagi

¹ Nomlari ko'rsatilgan olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirib o'tilgan

² Nomlari ko'rsatilgan olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirib o'tilgan

³ Nomlari ko'rsatilgan olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirib o'tilgan

⁴ Nomlari ko'rsatilgan olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirib o'tilgan

Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasida belgilangan “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi fundamental loyiha (2022-2026) doirasida bajarilgan. Tadqiqotda davlat boshqaruvidagi institutsional islohotlar, mahalliy davlat hokimiyati va vakillik organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, shuningdek, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflarni ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Ushbu yo‘nalish universitetning davlat va huquq sohasidagi ustuvor ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, amaliy hamda nazariy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijro etuvchi organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy asoslari hamda huquqni qo‘llash amaliyotini chuqur o‘rganish orqali ushbu munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan, ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslangan taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Quyidagi ilmiy-amaliy vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mohiyati va tizimini, shuningdek, ularning hokimiyatni bo‘lish prinsipi asosida faoliyat yuritishiga oid ilmiy-nazariy manbalardagi qarashlarni tahlil qilish;

mahalliy vakillik hamda ijro etuvchi hokimiyat organlari shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini hokimiyatlar bo‘linishi tamoyiliga tayangan holda o‘rganish;

vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlarining o‘z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida amal qiluvchi o‘zaro tormozlovchi (tiyib turuvchi) mexanizmlar va manfaatlar muvozanati tizimining shakllanganlik darajasini aniqlash;

mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari o‘rtasida qarorlar qabul qilish hamda ularning faoliyatida qonuniylikni ta‘minlash bilan bog‘liq o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish;

hokim va mahalliy Kengashlarning yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan huquqiy maqomidan kelib chiqib, ularning o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan kelishmovchilik va nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti - mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijro etuvchi organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqotning predmeti - mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijro etuvchi organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mazmun-mohiyati, ushbu jarayonni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek xalqaro me‘yorlar va ilg‘or xorijiy tajriba hamda mavjud ilmiy-nazariy ishlanmalar

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda ilmiy bilimning tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, formal-mantiqiy tahlil va sintez, ijtimoiy so‘rov, induksiya va deduksiya, shuningdek statistik ma‘lumotlar tahlili kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tuman, shahar ijro etuvchi hokimiyat organlarining tuzilmasi va shtat birliklari hokim tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan kelishilgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan byudjet doirasida belgilanishi va o‘zgartirilishi asoslab berilgan;

tuman va shahar hokimligi apparatining namunaviy tuzilmasi va shtat birliklari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan belgilab qo‘yilishi asoslantirilgan;

agar qonunchilikda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etishning o‘zgacha tartibi belgilanmagan bo‘lsa, tumanga bo‘ysunuvchi shaharning ijro etuvchi hokimiyati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda tegishli hokim tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etilishi kerakligi asoslab berilgan;

hokimning O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bo‘lmagan qarorlarini bekor qilishi mumkinligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mahalliy vakillik va ijro etuvchi organlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni optimal tartibga solishda, gorizontal munosabatlar bilan bir qatorda vertikal munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslariga doir takliflar ishlab chiqildi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarini tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni hokimiyatni bo‘linish prinsipi talablariga moslashtirish, ularda bir-birini takrorlash holatlarining yuzaga kelishini oldini olish hamda bartaraf etish, shuningdek, ushbu huquqiy hujjatlarni yagona tizimga keltirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga “Xalq deputatlari Kengashlari va hokimdan tashkil topgan mahalliy davlat hokimiyati tegishli hududdagi mulk va ishlarni boshqaradi hamda ularning holati uchun mas’uldir” mazmunidagi yangi 120¹-moddani kiritish va shunga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga tegishli qo‘shimchalarni kiritish bo‘yicha takliflar asoslab berildi.

Hokimni lavozimida tasdiqlash jarayonida yuqori turuvchi hokim va mahalliy Kengash o‘rtasida nizolar yuzaga kelishini oldini olishga xizmat qiluvchi tashkiliy-huquqiy mexanizmlar ishlab chiqildi.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunni “Xalq deputatlari Kengashining prokuror protest bildirgan qarorlarini qayta ko‘rib chiqishi majburiyligi” deb nomlangan yangi 30-moddasi bilan to‘ldirish zarurligi bo‘yicha taklif shakllantirildi.

Viloyat, tuman va shahar darajasida mahalliy Kengashlar va hokimlarning vakolatlarini ularning o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda alohida belgilash zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro va xorijiy huquq, shuningdek milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti hamda statistik ma’lumotlar tahlili asosida umumlashtirilgan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Toshkent shahri,

Toshkent viloyati, Sirdaryo viloyati, Jizzax viloyatlarida, ulardagi tuman va shaharlarida faoliyat yuritib kelayotgan hokimlari va ularning o‘rinbosarlari, Mahalliy Kengash deputatlari orasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlar natijalari umumlashtirilgan.

Xulosa, taklif va tavsiyalar ilmiy jamoatchilikda muhokama qilinib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy ilmiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan ilmiy natijalar tegishli vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ilmiy ahamiyati - tadqiqotda ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijro etuvchi organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni samarali tashkil etishga qaratilgan keyingi ilmiy izlanishlarda, shuningdek tegishli qonun hujjatlaridagi normalarni sharhlashda va milliy qonunchilikni takomillashtirishda qo‘llanishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari “Konstitutsiyaviy huquq”, “Davlat va huquq nazariyasi”, “Mahalliy boshqaruv”, “O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlari” kabi fanlarni o‘qitishda hamda ularning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliy ahamiyati - tadqiqotda ilgari surilgan tavsiyalar mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, ushbu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislarining malakasini oshirishda hamda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda keng qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat vakillik va ijroiya organlari o‘zaro munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

tuman, shahar ijro etuvchi hokimiyat organlarining tuzilmasi va shtat birliklari hokim tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan kelishilgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdiqlagan byudjet doirasida belgilanishi va o‘zgartirilishi to‘g‘risidagi taklifidan 2024-yil 24-oktabrdagi 399/LII-son Qonuni bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining 1998-yil 29-yanvardagi 330/I-son Qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni 19-moddasi ikkinchi qismiga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritishlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Mahalliy hokimiyatning vakillikli va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining ochiqqligini ta‘minlash masalalari qo‘mitasining 2025-yil 19-sentabrdagi 08-08/579-son dalolatnomasi). Mazkur yondashuv mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tashkiliy tuzilmasining vakillik organi tasdiqlagan byudjet imkoniyatlari bilan uzviy bog‘lanishini ta‘minlash, byudjet intizomini mustahkamlash va boshqaruv apparatiga sarflanadigan xarajatlarning asossiz oshishining oldini olishga xizmat qilgan;

tuman va shahar hokimligi apparatining namunaviy tuzilmasi va shtat birliklari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan belgilab qo‘yilishi

haqidagi taklifidan 2024-yil 24-oktabrdagi 399/LII-son Qonuni bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining 1998-yil 29-yanvardagi 330/I-son Qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni 19-moddasi to‘rtinchi qismiga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritishlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Mahalliy hokimiyatning vakillikli va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining ochiqligini ta‘minlash masalalari qo‘mitasining 2025-yil 19-sentabrdagi 08-08/579-son dalolatnomasi). Mazkur yondashuv tuman va shahar hokimliklari apparatini tashkil etishda yagona standartni joriy qilish, hududlar o‘rtasidagi asossiz tuzilmaviy tafovutlarni bartaraf etish hamda ijro etuvchi hokimiyat tizimining bir xilda va barqaror faoliyat yuritishini ta‘minlashga xizmat qilgan;

agar qonunchilikda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etishning o‘zgacha tartibi belgilanmagan bo‘lsa, tumanga bo‘ysunuvchi shaharning ijro etuvchi hokimiyati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda tegishli hokim tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimdan ozod etilishi haqidagi taklifidan Qoraqalpog‘iston Respublikasining 2025-yil 12-iyuldagi 52/V-son Qonuni bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining 1998-yil 29-yanvardagi 330/I-son Qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni 20-moddasi ikkinchi qismiga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritishlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Mahalliy hokimiyatning vakillikli va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining ochiqligini ta‘minlash masalalari qo‘mitasining 2025-yil 19-sentabrdagi 08-08/579-son dalolatnomasi). Mazkur yondashuv kadrlarni tayinlash tartibidagi huquqiy noaniqlikni bartaraf etish, hokimning tashkiliy mas‘uliyati bilan yuqori turuvchi davlat boshqaruvi organlarining sohaviy nazorati o‘rtasida muvozanat o‘rnatish va kadrlar siyosatining yaxlitligini ta‘minlashga xizmat qilgan;

hokimning O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bo‘lmagan qarorlarini bekor qilishi haqidagi taklifidan Qoraqalpog‘iston Respublikasining 2025-yil 12-iyuldagi 52/V-son Qonuni bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining 1998-yil 29-yanvardagi 330/I-son Qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni 21-moddasi yigirma uchinchi xatboshisiga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritishlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Mahalliy hokimiyatning vakillikli va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining ochiqligini ta‘minlash masalalari qo‘mitasining 2025-yil 19-sentabrdagi 08-08/579-son dalolatnomasi). Mazkur yondashuvlar davlat siyosatining hududiy darajada barqaror amalga oshirilishini ta‘minlash, shuningdek, vakillik va ijroiya hokimiyat organlari o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlikni kuchaytirish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 8 ta ilmiy anjumanda, xususan, 2 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha talabgor tomonidan jami 18 ta ilmiy ish (shundan 10 ta ilmiy maqola), xususan, dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan OAK nashrlarida 7 ta ilmiy maqola (shuningdek, 3 ta xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'qqizta paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ularning ishonchliligi va ahamiyati, joriy qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning "Davlat hokimiyatining mahalliy vakillik va ijro etuvchi organlari o'zaro munosabatlarning nazariy va huquqiy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida mahalliy hokimiyat organlarining huquqiy tabiati, tizimi va nazariy asoslari yoritilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi "*Mahalliy davlat hokimiyati organlari tushunchasi, mohiyati va tizimi*"ga bag'ishlangan. Davlat hokimiyati organlari bevosita saylov asosidagi vakillik va bilvosita demokratiya asosidagi ijro organlariga ajratiladi; O'zbekistondagi ikki pog'onali tizim – oliy (Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi) va mahalliy (Kengashlar va hokimliklar) organlar – ularning tizimli hamkorligini ta'minlaydi. Prezidentning 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmonida vakillik organlarini "xalqning chinakam ovozigacha aylantirish", ijro organlari faoliyatini "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etish va hokimliklar vazifalarini aniq chegaralash zarurati belgilangani qayd qilingan.

Mahalliy hokimiyatning shakllanishi ma'muriy-hududiy bo'linish bilan bog'liq bo'lib, milliy, iqtisodiy va aholiga yaqinlashtirish prinsiplariga tayanadi. Toshkent shahrida 2017-yilgi islohotlar natijasida tumanlarda Kengashlar tashkil etilishi fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini kengaytirgani misol qilib keltirilgan. Qiyosiy-huquqiy tahlilda Qozog'istonda vakillik va ijro organlarining birgalikdagi javobgarligi, Koreyada aholi farovonligiga oid vakolatlar, Yaponiyada mahalliy tuzilmalarning mol-mulk va nizomlar qabul qilish huquqi misolida vakolatlar aniq belgilangani ko'rsatilib, O'zbekistonda "mahalliy davlat hokimiyati" atamasiga aniq huquqiy ta'rif berish zarurati asoslangan.

Birinchi bobning "*Mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari o'zaro munosabatlarining prinsiplari*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida demokratizm, qonuniylik, hududiy yaxlitlik, hokimiyatning yagonaligi, oshkoralik, mas'uliyat va nazorat tamoyillari mahalliy boshqaruv samaradorligining zarur sharti sifatida asoslangan.

Hokimiyatning bo'linishi eng muhim konstitutsiyaviy tamoyil sifatida baholanib, 2023-yilda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarish – hokimning bir vaqtning o'zida Kengash raisi bo'lishi haqidagi normaning bekor qilinishi – uning hududiy

darajada tatbiq etilishining huquqiy kafolati ekani asoslangan. Natijada Kengash raisining deputatlar orasidan saylanishi demokratik tamoyillarni mustahkamladi, hokimlarning javobgarligi oshdi. Kengashlarga xizmat ko'rsatishning alohida kotibiyatga yuklatilishi ularning tashkiliy mustaqilligini ta'minlagani, islohotlar viloyat va Toshkent shahrida 2024-yildan, tuman va shaharlarda 2026-yildan kuchga kirishi qayd etilgan.

Yagona davlat hokimiyati tizimiga mansublik prinsipi asosida o'zaro hisobdorlik, nazorat va moddiy-texnik mustaqillik prinsiplari yoritilib, Rossiya, Belarus va Qirg'iziston tajribasidan kelib chiqib, ularni O'zbekiston qonunchiligida ham aniq belgilash zarurati asoslangan.

Birinchi bobning *“Mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi”* deb nomlangan uchinchi paragrafida asosiy manba sifatida Konstitutsiyaning 21-bobi 120–125-moddalarida mahalliy hokimiyat organlarining huquqiy maqomi, shakllanish tartibi, vakolatlari va hisobdorlik mexanizmlari belgilangani qayd qilingan. 1993-yil 2-sentabrda “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonun esa Kengashlar va hokimlarning huquqiy maqomini belgilovchi asosiy hujjat sifatida tahlil qilingan.

Qonunda vakillik organlari ustuvorlikka ega bo'lishiga qaramay, hokimlarning vakolatlari Kengashlardan oldin keltirilgani nomuvofiqlik sifatida baholangan va V hamda VI boblar ketma-ketligini Konstitutsiyadagi tartibga moslashtirish zarurligi ta'kidlangan. Huquqiy manbalar qatorida “Saylov kodeksi”, “Xalq deputatlari Kengashi deputatlarining maqomi to'g'risida”gi va “Davlat boshqaruvini yangilash va demokratlashtirish to'g'risida”gi qonunlar ko'rsatilgan.

Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari ham muhim manba sifatida ko'rsatilgan: “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va “O'zbekiston–2030” strategiyasida vakillik organlarini xalqning chinakam ovozig aylantirish hamda hokimlarning Kengashlardan mustaqilligini ta'minlash vazifalari belgilangani, “E-qaror” tizimi boshqaruv shaffofligini oshirayotgani qayd qilingan. Shakllangan kompleks mexanizmni hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga moslashtirish va yagona tizimga keltirish zaruriyati asoslangan.

Dissertatsiyaning *“Mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlarini shakllantirish jarayonidagi o'zaro munosabatlari”* deb nomlangan ikkinchi bobida hokim va Kengash vakolatlarining ajratilishi hamda ularni tayinlash va tasdiqlash tartiblarining tashkiliy-huquqiy asoslari yoritilgan.

Ikkinchi bobning *“Mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlarini shakllantirish jarayonidagi o'zaro munosabatlarining xosliklari”* deb nomlangan birinchi paragrafida institutsional shakllanish omillari asoslangan. E.A. Kundakchan ta'kidlaganidek, nazorat va muvozanat mexanizmlari bir hokimiyat organining boshqasini shakllantirishdagi ishtiroki orqali namoyon bo'ladi. Prezidentning 2024-yil 2-fevraldagi PF-28-son Farmonida mahalliy Kengashlarni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi vazifasi belgilangan bo'lsa-da, ularning shakllanish jarayoniga yetarlicha e'tibor qaratilmagani qayd etilgan.

Paragrafda ikki omilga urg'u berilgan: deputatlikka ijro hokimiyati tizimiga mansub shaxslarning saylanishiga yo'l qo'ymaslik va saylovlarda ijro hokimiyati ta'sirini minimallashtirish. Saylov kodeksining 90-moddasi lavozimni deputatlik

bilan birlashtirishni taqiqlasa-da, 2024-yilda 218 ta mahalliy Kengashning 6 447 nafar deputatidan 314 nafari (4,9 foiz) bir vaqtning o'zida ijro hokimiyati mansabdori bo'lgan; eng ko'p qonunbuzilish Andijon viloyatida (64 nafar) qayd etilgan. Konstitutsiyaning 128-moddasi taqiqiga qaramay, tuman va shahar hokimlari viloyat Kengashlariga ham saylanmoqda: Namanganda – 15, Farg'onada – 20, Surxondaryoda – 14 nafar. Ularning viloyat hokimiga tobeligi nazorat mexanizmlarini to'laqonli amalga oshirishga to'sqinlik qilishi asoslangan.

Byudjet tashkilotlari vakillarining ulushi tanqidiy tahlil qilingan: 2024-yilda deputatlar orasida ta'lim sohasi vakillari – 1 529 nafar (23,7 foiz), tibbiyot – 426 nafar (6,6 foiz), madaniyat, sport va san'at – 151 nafarni (2,3 foiz) tashkil etadi, ya'ni deputatlarning qariyb uchdan bir qismi (32,6 foiz) ijro hokimiyati bilan bog'liq shaxslardir.

Muammolarni bartaraf etish uchun Saylov kodeksida tuman va shahar hokimlarining viloyat Kengashiga saylanishini qat'iy taqiqlash; Senatga qonunga zid deputat bo'lgan mansabdorlarni vakolatidan mahrum qilish mexanizmini joriy etish; siyosiy partiyalar nomzod tanlashda nodavlat sektor vakillariga ustuvorlik berishi taklif qilingan. G. Ismoilovanning fikricha, Kengashlar chinakam vakillik organiga aylanishi uchun mustaqil pozitsiyali shaxslar saylanishi lozim. Saylov kodeksining 48-moddasidagi targ'ibot tadbirlarini hokimlik bilan kelishish tartibi ijro hokimiyatiga bilvosita ta'sir imkonini berayotgani qayd etilgan.

Ikkinchi bobning *“Mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari tuzilmaviy bo'linmalarini shakllantirishdagi o'zaro munosabatlari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida Kengashlarning tuzilmaviy bo'linmalari – doimiy komissiyalar, partiya guruhlar va kotibiyat – ijro organlaridan mustaqil shakllanishi hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga mos kelishi, Kengashlar esa hokim o'rinbosarlari va bo'linma rahbarlarini tasdiqlash orqali institutsional bog'liqlikni ta'minlashi asoslangan. J.M. Ermashevning fikricha, vakillik organlari faoliyatini yangilash davlat hokimiyatining huquqiy asoslarini mustahkamlashning eng muhim shartidir. Konstitutsiyaning 121-moddasiga muvofiq hokim ijro organiga rahbarlik qiladi, *“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”*gi Qonunning 22-moddasi esa bo'linmalar tarkibini belgilaydi.

Konstitutsiyaning 124-moddasiga ko'ra viloyat va Toshkent shahar hokimlari Prezident tomonidan tayinlanib, Kengash tasdig'i majburiy emasligi ularning hisobdorligini pasaytirayotgani qayd etilgan. Qozog'iston Konstitutsiyasining 87-moddasiga ko'ra akim maslxatlar roziligi bilan tayinlanadi, Rossiyada esa ijro rahbariga nisbatan ishonchsizlik votumi joriy etilgan. L.T. Januzakova vakillik organiga butun ijro tarkibiga ishonchsizlik bildirish huquqi berilishi kerakligini ta'kidlaydi. 24 nafar hokim va 51 nafar hokim o'rinbosari ishtirokidagi so'rovda hokim o'rinbosarlarini tayinlashda yuqori hokim bilan kelishuv tartibini bekor qilishni 89,3 foiz respondent qo'llab-quvvatlagan.

Qoraqalpog'istonning yangi qonunida mahalliy ijro organlari tuzilmasi Vazirlar Kengashi tomonidan belgilanishi Kengashlar ishtirokini cheklashi ko'rsatilgan; B.A. Daumenov bu masalalarni qayta ko'rib chiqish talab etilishini ta'kidlaydi. Yaponiyada deputatlar hokimga istalgan vaqtda ishonchsizlik votumini kiritishi, Ispaniyada plenium hokimni lavozimidan chetlatish vakolatiga ega ekani

misolida O'zbekistonda ham ishonchsizlik votumini joriy etish va hokimlik rahbarlarini tayinlashni Kengashlar tasdig'iga bog'lash zaruriy kafolat sifatida asoslangan.

Ikkinchi bobning *“Vakolatlar tugatilishi xolatida mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlarining o'zaro munosabatlari”* deb nomlangan uchinchi paragrafida vakolatlarning muddatidan ilgari tugatilishi Prezidentning 2024-yil 2-fevraldagi PF–28-son Farmonidagi “Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili bilan uyg'unlashishi ko'rsatilgan: hokimlikning barcha faoliyati hokim shaxsi orqali baholanishi, vazifalar bajarilmagan taqdirda hokim bilan birga tuzilmaviy bo'linmalar rahbarlarining vakolatlari ham tugatilishi lozimligi ko'rsatilgan. Qozog'istonda hokim vakolatlari tugatilganda butun ijroiya jamoa iste'foga chiqishi Kengashlarning ta'sirchanligini oshiruvchi tajriba sifatida keltirilgan.

2007-yilgi Konstitutsiyaviy qonun asosida Kengashlardagi partiya guruhlariga hokim faoliyatini qoniqarsiz deb topish tashabbusi huquqi berilgan bo'lsa-da, bu huquq faqat “yetakchi partiya guruhlari”ga bog'langani va “yetakchi” tushunchasi qonunchilikda aniq belgilanmagani muammo sifatida qayd etilgan. Qozog'iston, Rossiya, Yaponiya va Ispaniya tajribasidan kelib chiqib, mahalliy Kengashlarga hokimga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish huquqini berish hamda “yetakchi partiya guruhi” tushunchasini “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi Qonunga kiritish taklif etilgan.

Dissertatsiyaning “Mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlarini amalga oshirishdagi o'zaro munosabatlari” deb nomlangan uchinchi bobida qarorlarning huquqiy kuchi, norma ijodkorligidagi hamkorlik va nizolarni bartaraf etish mexanizmlari yoritilgan.

Uchinchi bobning *“Mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirishdagi o'zaro munosabatlari”* nomli birinchi paragrafida vakolatlar majmuasi o'zaro aloqalarning huquqiy negizini tashkil etishi asoslangan. I.I. Urvachevaning “vakolatlarni taqsimlash va muvozanatlashda maqbul balansni izlash alohida ahamiyatga ega” degan fikri hamda S.V. Pleshenkovning qarashi tahlil qilinib, vakillik va ijro organlari vakolatlarini mutlaqo ajratib bo'lmasligi, ular hududiy rivojlanish uchun birgalikda mas'ul ekani asoslangan.

Qozog'istonning “Mahalliy boshqaruv va o'zini o'zi boshqarish to'g'risida”gi Qonuni 1-moddasida vakillik va ijro organlari hududdagi ishlar uchun birgalikda mas'ul ekani mustahkamlangani qayd qilinib, bu tajriba ijro hokimiyatining ham tiyib turish ta'sirini ko'rsatishi ta'kidlangan. Kengash va hokimning birgalikdagi vakolatlarini qonuniylik, ijtimoiy adolat, umumdavlat va mahalliy manfaatlarning uyg'unligi, ochiqlik, javobgarlik va mustaqillik prinsiplari asosida huquqiy tartibga solish zarurligi asoslangan.

Hokimga Kengash qarorini bekor qilish taklifi bilan rasmiy murojaat yuborish, u rad etilgan taqdirda sudga murojaat qilish huquqi berilishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan. Bunday tiyib turish mexanizmi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida hamda Qozog'iston Respublikasi qonunining 58-moddasida Maslahat va mahalliy ma'muriyatning bir-biri qarorlarini bekor qilish imkoniyati sifatida belgilangan.

Vakolatlarning universal tarzda belgilanayotgani javobgarlikni mavhumlashtirayotgani, ularni hududiy xususiyatlardan kelib chiqib tabaqalashtirish lozimligi L.V. Andrichenko va A. Dadashevaning qarashlari bilan tasdiqlangan. Yevropa Xartiyasida mustahkamlangan va Germaniya tajribasida qo'llaniladigan subsidiarlik prinsipi ham yoritilgan.

Uchinchi bobning *“Mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlarining norma ijodkorligi sohasidagi o‘zaro munosabatlari”* nomli ikkinchi paragrafida norma ijodkorligi hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi asosida tashkil etilishi tahlil qilingan. Masalaning dolzarbligi Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan “vakillik va ijro organlarida qarorlar qabul qilish jarayonining samaradorligini oshirish” eng muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgani bilan izohlangan. Konstitutsiyaning 126-moddasiga ko‘ra Kengash va hokim qarorlari barcha subyektlar uchun majburiy bo‘lib, ular o‘zaro muvofiqlashgan holda qabul qilinishi lozimligi asoslangan.

N.A. Xodjamovning qarorlar qonuniyligi va shaffofligini ta’minlash mahalliy boshqaruvni isloh qilishning asosiy maqsadi ekani haqidagi qarashi asosida noqonuniy qarorlarni o‘z vaqtida bekor qilish kafolatlari zarurligi asoslangan. “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasi Kengashga hokimning qonunga zid qarorlarini bekor qilish huquqini bergani qayd etilib, hokimning ham Kengash qarorlariga munosabat bildirish va sud orqali ularni bekor qilish tashabbusi bilan chiqish huquqi bo‘lishi kerakligi asoslangan; S.A. Avakyan xorijiy tajribada ijroiya organi hujjatlari vakillik organiga majburiy yuborilishini ko‘rsatadi. O‘zaro munosabat shakllari – qaror loyihalaridan bir-birini xabardor qilish, doimiy komissiyalar yig‘ilishlarida ishtirok etish, qarorlarni oldindan muhokama qilish – muvozanat mexanizmlari sifatida tahlil qilingan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda mahalliy Kengashlar tomonidan 32833 ta qaror va 964 ta farmoyish qabul qilingan, ulardan 1113 tasi normativ tusda bo‘lgan, 783 ta qarorda qonun buzilishi aniqlangan, Senat 10 dan ortiq qarorni bekor qilgan; noqonuniy qarorlar sonining 2023-yilga nisbatan 43,3 foizga kamaygani qarorlar sifati yaxshilanganini ko‘rsatadi. Senatning kollegial tabiati barcha qarorlarni izchil ko‘rib chiqishga imkon bermasligi sababli bu vakolatni Senat Kengashiga o‘tkazish, prokuror protest bildirgan Kengash qarorlarini qayta ko‘rib chiqish majburiyligi yuzasidan Qonunga yangi norma kiritish taklif etilgan. Z.S. Isroilovanning jamoaviy mas’uliyat yo‘qligi katta to‘siqlardan biri ekani haqidagi qarashi ham keltirilgan.

Mazkur bobning *“Mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlarining o‘zaro munosabatlari jarayonida kelishmovchiliklar va nizolarni bartaraf etish tartibi”* deb nomlangan uchinchi paragrafida nizolarni hal etish mexanizmlari tahlil qilingan. Ilgari hokim har ikki organ boshlig‘i sifatida kelishmovchiliklarni bartaraf etgan bo‘lsa, yangi Konstitutsiya asosida vakolatlar ajratilgach, alohida rahbarlar o‘rtasida nizolar yuzaga kelishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Ye.V. Kombarovanning huquqiy nizolarni aniqlash va oldini olish fuqarolik jamiyati taraqqiyotidagi dolzarb muammo ekani haqidagi fikridan kelib chiqib, vakillik va ijro organlari o‘rtasida paritet asosida yarashtiruv komissiyalari tashkil etilishi lozimligi ta’kidlangan.

Amaldagi qonunchilikda kelishuv tartib-taomillari yo‘qligi muammo sifatida ko‘rsatilib, Z.S. Isroilovanning nizolar siyosiy va shaxsiy sabablarga bog‘liq ekani

haqidagi qarashi asosida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunga maxsus kelishuv tartiblarini kiritish zarurligi asoslangan. Xususan, quyi hokim nomzodini Kengash rad etganidan so‘nggi tartib belgilanmagani konstitutsiyaviy-huquqiy nizo manbai sifatida yoritilgan. O.V. Brejnevning kelishuv protseduralari nizolarni suddan tashqari hal etishning samarali vositasi ekani haqidagi qarashiga tayanib, muzokaralar, ishchi guruhlar, kelishuv komissiyalari va vositachilik muhim vositalar sifatida ko‘rsatilgan.

Partiya guruhlari instituti hokim nomzodlarini tasdiqlashdagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishning samarali va oshkora yo‘li sifatida baholangan. Qozog‘iston tajribasida akim nomzodini uch marotaba taqdim etish talab etilishi kelishuv emas, keskin choralar orqali hal etishga xizmat qilishi ko‘rsatilgan. Ijro organlari strukturaviy bo‘linmalari rahbarlarini tayinlashdagi nizolar ehtimolidan kelib chiqib, ushbu vakolatlarni to‘liq hokimga berish zarurligi yangi Konstitutsiyada hokimning ijro organlari ustidan to‘liq mas’uliyati belgilangani bilan asoslangan.

Tadqiqotda mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari o‘zaro munosabatlarining huquqiy asoslari va vakolatlarni taqsimlashdagi muammolar tahlil qilingan. Hokimning bir vaqtning o‘zida Kengash raisi bo‘lishi haqidagi normaning bekor qilinishi hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini hududiy darajada joriy etishning huquqiy kafolati sifatida baholangan. Qarorlar qabul qilishda o‘zaro nazorat mexanizmlarining sustligi va nizolarni bartaraf etish tartibining huquqiy asoslari yetarli emasligi qayd etilib, subsidiarlik prinsipini qo‘llash, qarorlarni o‘zaro ko‘rib chiqish mexanizmlarini joriy etish va kelishuv tartibini qonunchilikda mustahkamlash yuzasidan takliflar ilgari surilgan.

Dissertatsiyaning **xulosa** qismida asosiy ilmiy natijalar (xulosa, taklif va tavsiyalar) keltirilgan.

XULOSA

